

OGAHIYNING G‘AZALLARIDA SHE‘RIY SAN‘ATLARNING QO‘LLANILISHI

Abduvohidova Hanifa

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti

o‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy g‘azallarida qo‘llanilgan she‘riy san‘atlar yoritilgan. Ogahiy o‘lmas va qimmatbaho ijodiy merosga ega bo‘lib, u o‘z g‘azallarida mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan turli she‘riy san‘atlar, jumladan, tashxis, tazod, tajnis, talmeh, takrir, tarse’, mubolag‘a va boshqalari bilan mahoratona ishlagan.

Tayanch so‘zlar: *Ogahiy, tashxis, tajnis, takrir, tarse’, talmeh, tamsil, tashbeh, tazod.*

O‘zbek adabiyotida bir-biridan ulug‘ shoirlar, yirik adiblar, so‘z ustalari juda ko‘p. Biz ularni o‘z navbatida uch guruhga bo‘lishimiz mumkin. Ularning birinchisi toifasida hayotlik davrida mashhurlikka erishgan, lekin keyinchalik unutilgan shoirlarni kiritishimiz mumkin. Ikkinchi toifaga esa, hayotlik chog‘ida nomi chiqmasada, vafotidan so‘ng mashhurlikka erishgan shoirlar mos. Yana bir toifa shoirlar borki, ular bu o‘tinchi dunyoda o‘chmas nomga sazavor bo‘lganlar. Alisher Navoiydan keyin O‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan, xo‘p va ko‘p ijod qilgan adib, Muhammadrizo Ogahiy ham aynan uchinchi toifaga mansub.

Ushbu maqolada ham mumtoz shoir, sermahsul tarjimon, xassos muarrix, davlat arbobi Muhammadrizo Ogahiyning ijodi, uning badiiy san‘atlardan foydalanish mahorati haqida so‘z yuritamiz.

Ogahiy ijodida g‘azallar katta ahamiyatga ega. Uning g‘azallari turli-tuman bo‘lgan holda, kompozitsiya jihatidan yaxlit (yakpora), musalsal, voqeaband hamda tarqoq-parokanda kabi turlarga ajratish mumkin. Mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri she‘riy san‘atlar masalasi ijod ahlining doimo diqqat markazida bo‘lib kelgani kabi, Ogahiy ijodida ham bu masala asosiy ahamiyat kasb etadi. Shoir devonidagi g‘azaldan olingan quyidagi baytni ko‘rib chiqaylik:

Baland aylab quyoshga poya navro‘z,

Ko‘tardi yer yuzindin soya navro‘z.

Bu o‘rinda shoir tashxis san‘atidan foydalangan holda shoir bu bahoriy ayyomni madh etadi, ya‘ni dastlabki baytda navro‘z ayyomni jonlantirib, u quyoshni baland qadr va martabaga olib chiqdi va bu bilan yer yuzidan soyani ko‘tardi deb tasvirlanadi. Tashxis odamlarga xos xususiyatlarni jonsiz predmetlarga, tabiatning turli hodisalariga

ko'chirish orqali, to'g'rirog'i, ularni insoniylashtirish orqali paydo bo'lgan badiiy san'atdir.

Ushbu shery san'atning bir go'zal namunasini quyidagi baytda ham ko'rishimiz mumkin:

Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Tushunilishi qiyin so'zlarni ma'nosi aniqlab olamiz: tarab-shodlik, quvonch; tifl-bola, go'dak; tug'urdi-tug'di, dunyoga keltirdi; dahr-dunyo, gardesh, davron, charx; zol-kampir. Bu g'azaldan shunday mano chiqadimi, (dahr) dunyo kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan (dunyoga keltirar ekan), navro'z unga doyalik qildi. Tashxis uchun tabiatdagi hodisalar asos qilinib olingan: dunyo otliq kampirning tug'ishi va unga navro'zning doya bo'lishi.

Ogahiy tomonidan qo'llanilgan she'riy san'atlarning eng jozibadorlaridan biri tarse' sanatidir. Tarse' arabcha so'z bolib, "ziynatlash" manosi anglatadi.

Yuzing avji sabohatda mahi anvarga o'xshaydur,
So'zing xoni malohatda tuzu shakkarga o'xshaydur.

Mazkur baytdagi yuzing so'zing, sabohatda malohatda, mahi anvar tuzu shakkar so'zlari va so'z birikmalari tarkibidagi hijolar soni va sifati jihatdan ham, ohangdoshligi jihatdan ham bir-birlariga mutanosib bo'lganligi uchun tarse' san'atining eng ajoyib namunalaridan sanaladi.

Mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladigan tazod san'ati Ogahiy ijodida ham salmoqli o'rinni egallaydi. Tazod arabcha qarshilantirish, zid baytda bir-biriga qarama-qarshi zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi, ya'ni (antonimlar). Ogahiy Ustina radifli g'azaliga e'tiborimizni qaratsak;

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Ushbu bayting har bir misrasida tazod san'atining yaqqol namunasini ko'rsak bo'ladi. Birinchi misradagi yamon-u yaxshi, ikkinchi misradagi vayron-u obod tazod san'atini hosil qilgan. Bu baytda shoir shohga qarata nasihat tarzida saxovatni yaxshi-u yomonga teng tutishini aytgan, bunga quyoshning nurini vayron va obod joylarga ham teng tushishini mohirona tarzda dalillab bergan, shu asnoda, Quyoshni mehrga o'xshatish orqali tashbeh san'atini ham keltirib o'tgan.

Ogahiy foydalangan lafziy san'atlardan yana biri takrir hisoblanadi. Takrir takrorlash ma'nosini bildirgan holda she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi.

Chu deding telba kongling kimgadur shaydoyu oshufta,
Eshitkil, pari paykar, sangodur bu, sangodur bu.

Ushbu baytda shoir takrir san'ati vositasida sangodur bu jumlasini takror qo'llash orqali oshiqning yorga munosabatini bo'rttirib tasvirlaydi.

Badiiy adabiyotning yana bir yirik san'atlaridan biri talmeh san'atidir. Talmeh arabcha nazar solmoq, ko'z tashlamoq degan ma'nolarni bildirib, baytda tarixiy voqea va shaxslar, adabiy qahramonlar va joylarga ishora qiladi.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Ushbu baytda Sulaymon obrazi talmeh san'atini yuzaga keltirgan. Bizga ma'lumki, Sulaymon obrazi payg'ambar va hukmronlik va boylik timsoli hisoblanadi. Bu baytda Sulaymon obrazini payg'ambar emas, boylik timsolida kelgan, shu boisdan, Sulaymondek butun dunyoga hukmronlik qilib dunyolarcha boylik ortirgan taqdiringda ham bir kun kelib, boylik tugamasa ham bu dunyoni tark etishini aytib kibrga berilmaslik g'oyasini keltirib o'tgan.

Ushbu she'riy san'atning yana bir go'zal namunasi keltirib o'tsak;
Boshing'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

Ushbu baytda Besutun so'zi talmeh san'atini hosil qilib kelmoqda. Afsonaviy Besutun tog'idan mingtasini (gardun) dunyo Farhodning ustiga yog'dirsa ham oshiqning boshiga yog'gan g'am toshining mingdan biricha bo'lmaydi deb keltirib o'tiladi. Bundan tashqari, bu baytda mubolag'a san'atini ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Farhod – ishq yo'lida cheksiz zahmatlar chekkan, g'am-alamlar tortgan, musibatlariga yo'liqqan obraz timsolida, mubolag'a san'atni yuzaga chiqaradi.

Mumtoz sheriya-timozda juda keng qo'llaniladigan she'riy san'atlardan yana biri tashbehdir. Bu ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan buyum yoki tushunchani yoxud shaxsni o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq va jozibalibroq g'aydalantirishga xizmat qiladi, asar timsollarining manaviy qiyofasini yaqqolroq ochish, shoir g'oyasini o'quvchiga to'laroq va ta'sirchanroq qilib yetkazish imkonini beradi. Shoirning o'xshaydur radifli g'azali ham boshdan-oyoq tashbehlar asosiga qurilgan:

Yuzing avji sabohatda mahi anvarga o'xshaydur,
So'zning xoni malohatda tuzu shakkarga o'xshaydur.

E'tibor berilsa, ushbu baytda tashbehning har ikki turi - haqiqiy tashbeh va majoziy tashbehlar baravar ishlatilganini ko'rishimiz mumkin: avji sabohat – go'zallik osmoni tushunchasi mavhum narsa bo'lganligi tufayli majoziy tashbehni yuzaga keltiradi; mah - oy, anvar - quyoshlar esa konkret narsalar bo'lganligi sabab haqiqiy tashbehning yuzaga kelishiga xizmat qilib turibdi. Demak, birinchi misrada har ikkala tashbeh ko'rinishi birgalikda bir san'at sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ogahiy o'z sheriya-timozida ko'p qo'llagan she'riy san'atlardan yana biri tamsil hisoblanadi. U □misol keltirish□ ma'nosini anglatib, she'r baytining birinchi

misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir.

Manga laling zuloli bersang, ey dilbar, munosibdur,
Ki bermak ojiz o'lg'on xastaga shakkar munosibdir.

Ushbu matlaning birinchi misrasida oshiq ma'shuqasi labidan bo'sa so'rayotir va o'sha iltijosini ikkinchi misradagi hayotiy hodisa bilan asoslamoqda. Ya'ni men sening hajringda bemor bo'lib, ojizlanib qolgan bir kishiman, xasta kishiga shakar bermoq munosibdir, deya ta'kidlamoqda. Birinchi misradagi dardmand bemorga o'xshatilgan oshiq ikkinchi misrada ojizlikdan davo topish chorasi bilan ta'minlanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan aytadigan bo'lsak, Ogahiy ijodi o'zbek mumtoz she'riyatining nihoyatda ajoyib namunasi bo'libgina qolmay, balki, ana shu she'riyatda qo'llaniladigan san'atlarning ham mohirona ustasi hamdir. Shu o'rinda ham shoirning ijoddagi o'ziga xosligi, betakrorligi ko'rinib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Shoir va tarjimon Ogahiyning badiiy mahorati. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent: 1970.
2. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1963.
3. Matyoqubova M. Ogahiy ijodida kichik she'riy janrlar. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent: 200.
4. Muhammad Rizo Ogahiy. To'la asarlar to'plami, – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014.
5. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. –T.:1960.
6. Тошев Н. Огаҳийга нисбат берилувчи таржималар: Тарихи жаҳонгушойи Нодирий// О'zbek tili va adabiyoti. – Тошкент: 2009. – № 6.
7. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. Ж.2 (XV асрнинг 2 ярми). – Тошкент: Фан, 1977.
8. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
9. Шарқ мумтоз поетикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
10. Шермухаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. “Фирдавс ул-икбол”. – Т.: “Ўқитувчи”, 2010.
11. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Академнашр, 2013.